

V. XIZMATLAR

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan xizmatlar sohasining ahamiyati juda ulkan va dolzARB hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tobora murakkablashib borayotganligi, bozorni kunlik va individual talablarga mos iste’mol mollari bilan to‘ldirish, innovatsion rivojlanishning jadal o‘sishi jamiyat hayotining yangilanishiga olib keladi. Bu axborot, moliya, transport, sug‘urta va boshqa turdagI xizmatlarsiz amalga oshmaydi.

Zamonaviy jamiyat hayotida xizmatlar sohasi juda keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Bugungi kunda u yoki bu turdagI xizmatlar ko‘rsatmaydigan yoki hech bo‘lmaganda unga duch kelmagan korxonalar deyarli yo‘q.

2023- yil yanvar-sentabr oylarida xizmatlar ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hajmi 22 540,0 mlrd. so‘mni tashkil qildi, shu jumladan, qishloq joylarida 6 030,7 mlrd. so‘m yoki umumiY ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining 26,8 %ini tashkil qildi. 2022- yil yanvar-sentabrga nisbatan o‘sish sur’ati 108,9 %ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan
xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari
(2023- yil yanvar-sentabr oylarida)**

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2022- yil yanvar-sentabrga nisbatan % hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan % hisobida</i>
Jami xizmatlar:	22 540,0	108,9	100,0
<i>shu jumladan, xizmat turlari bo‘yicha:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	763,4	122,9	3,4
Moliyaviy xizmatlar	3 321,2	120,0	14,7
Transport xizmatlari	5 115,0	103,0	22,7
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>			
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	965,2	104,8	4,3
Savdo xizmatlari	7 400,5	107,6	32,8


	<i>mldr. so‘m</i>	<i>2022- yil yanvar-sentabrga nisbatan % hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan % hisobida</i>
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	697,4	104,0	3,1
Ta’lim sohasidagi xizmatlar	553,4	115,8	2,5
Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	627,6	116,2	2,8
Ijara xizmatlari	597,6	103,9	2,6
Kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta’mirlash xizmatlari	501,1	104,7	2,2
Shaxsiy xizmatlar	680,3	105,7	3,0
Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	462,7	100,5	2,1
Boshqa xizmatlar	854,6	118,0	3,8

Yuqori o’sish aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (122,9 %), molivayiv xizmatlar (120,0 %), boshqa xizmatlar (118,0 %), sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (116,2 %) hamda ta’lim sohasidagi xizmatlar (115,8 %)da qayd etildi.

Shuningdek, uncha yuqori bo‘lmagan ko‘rsatkichlar, ijara xizmatlari (103,9 %), transport xizmatlari (103,0 %) hamda me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar (100,5 %)da qayd etildi.

Xizmatlar sohasiga taalluqli bo‘lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo‘yicha o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o’sish sur’atlarining o‘sishi kuzatilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining tarkibi
(2023- yil yanvar-sentabr oylarida)**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2023- yil yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi 32,8 %ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (22,7 %) hamda moliyaviy xizmatlar (14,7 %)da qayd etildi. Yashash va ovqatlanish xizmatlarda uncha katta bo'limgan o'sish kuzatilib ularning ulushi (4,3 %)ni tashkil etdi.

Shuningdek, nisbatan yuqori bo'limgan ulushlar kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (2,2 %) hamda me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar (2,1 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Savdo xizmatlari tarkibi, %da
(2023- yil yanvar-sentabr oylarida)




2023- yil yanvar-sentabr oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi viloyat bo'yicha umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtadan uch qismini, aniqrog'i 70,9 %ini tashkil etdi (2022- yilning mos davrida chakana savdo xizmatlari ulushi 70,4 %ga to'g'ri kelgan).

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 20,1 %ni tashkil etdi (2022- yilning mos davrida ulgurji savdo xizmatlari ulushi 20,0 %ga to'g'ri kelgan).

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining ulushi 9,0 %ni tashkil qildi (2022- yilning mos davrida avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining ulushi 9,6 %ga to'g'ri kelgan).


**Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining
o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan, %da
(2023-yil yanvar-sentabr oylarida)**



Ushbu davr mobaynida nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Bo'stonliq (111,3 %), Yuqori Chirchiq (111,2 %), Ohangaron (110,9 %), Bekobod (110,4 %) tumanlarida hamda Olmaliq (111,5 %), Bekobod (111,1 %) shaharlarda qayd etildi.

Aksincha, ushbu davr mobaynida eng past o'sish sur'atlari Nurafshon (104,4 %), Yangiyo'l (101,6 %) shaharlarda hamda Bo'ka (106,2 %), Piskent (105,9 %) tumanlarida qayd etildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor
xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, %da
(2023-yil yanvar-sentabr oylarida)**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yuqori o'sish sur'atlari aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (122,9 %), moliyaviy xizmatlar (120,0 %), boshqa xizmatlar (118,0 %)da qayd etildi. Aksincha, eng past ko'rsatkichlar ijara xizmatlari (103,9 %), transport xizmatlari (103,0 %) hamda me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar (100,5 %)da qayd etildi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida boshqa xizmatlar (135,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (127,6 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (126,4 %)da yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan. Aksincha, eng past ko'rsatkichlar transport xizmatlari (108,2 %), ijara xizmatlari (107,1 %) hamda me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar (72,8 %)da qayd etilgan.


**2023- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha ko‘rsatilgan
xizmatlar hajmi**

	<i>Jami</i>			<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2022- yil yanvar- sentabrga nisbatan %da</i>	<i>Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, %da</i>	<i>ming so‘m</i>	<i>2022- yil yanvar- sentabrga nisbatan %da</i>
Viloyat bo‘yicha	22 540,0	108,9	100,0	7 476,2	106,9
<i>shaharlar:</i>					
Nurafshon	691,4	104,4	3,1	12 594,7	101,2
Olmaliq	1 634,4	111,5	7,3	11 421,5	106,3
Angren	1 508,8	108,9	6,7	8 377,4	106,3
Bekobod	1 086,9	111,1	4,8	10 563,1	108,7
Ohangaron	454,6	109,0	2,0	11 087,6	107,2
Chirchiq	1 896,9	109,3	8,4	11 171,6	106,8
Yangiyo‘l	929,1	101,6	4,1	11 194,4	98,7
<i>tumanlar:</i>					
Oqqo‘rg‘on	618,3	108,9	2,7	5 570,0	107,0
Ohangaron	343,7	110,9	1,5	3 127,6	108,8
Bekobod	679,4	110,4	3,0	4 137,6	108,5
Bo‘stonliq	1 435,7	111,3	6,4	8 166,8	110,0
Bo‘ka	627,5	106,2	2,8	4 707,7	104,5
Quyi Chirchiq	543,2	109,3	2,4	4 727,2	107,3
Zangiota	2 162,5	107,6	9,6	12 825,9	106,4
Yuqori Chirchiq	960,1	111,2	4,3	6 957,6	109,2
Qibray	1 867,9	108,9	8,3	10 747,6	107,9
Parkent	859,5	109,5	3,8	4 878,2	107,7
Piskent	356,8	105,9	1,6	3 491,7	108,0
O‘rta Chirchiq	726,9	110,0	3,2	5 364,6	108,5
Chinoz	759,2	109,1	3,4	5 282,4	106,7
Yangiyo‘l	1 088,6	108,9	4,8	5 492,1	106,5
Toshkent	1 308,6	109,0	5,8	6 717,3	106,1

2023- yil yanvar-sentabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush Zangiota tumanida qayd etildi – (9,6 %) (2022- yilning mos davrida– 9,7 %). Aksincha, eng past ko‘rsatkich Ohangaron tumanida – 1,5 % (2022- yilning mos davrida – 1,5 %) qayd etildi.

2023- yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 7 476,2 ming so‘mga teng bo‘ldi. O‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 106,9 %ni tashkil etdi.


2023- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar o‘sish sur’ati, %da



2023- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan eng yuqori ko‘rsatkichlar Bo‘stonliq (110,0 %), Yuqori Chirchiq (109,2 %), Ohangaron (108,8 %), O‘rta Chirchiq (108,5 %) tumanlarida hamda Bekobod shahrida (108,7 %) qayd etildi.

Aksincha, eng past ko‘rsatkichlar Toshkent (106,1 %), Bo‘ka (104,5 %) tumanlarida hamda Nurafshon (101,2 %), Yangiyo‘l (98,7 %) shaharlarida qayd etildi.

**2023- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan
xizmatlar hajmi, ming so‘m**




Joriy yilda viloyatda aholi jon boshiga ko‘rsatilgan eng yuqori xizmatlar hajmi Zangiota tumanida – 12 825,9 ming so‘mni (o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 106,4 %), Nurafshon shahrida – 12 594,7 ming so‘mni (101,2 %) va Olmaliq shahrida – 11 421,5 ming so‘mni (106,3 %) tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan eng past xizmatlar hajmi Bekobod tumanida – 4 137,6 ming so‘mni (o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 108,5 %), Piskent tumanida – 3 491,7 ming so‘mni (o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 108,0 %) va Ohangaron tumanida – 3 127,6 ming so‘mni (o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 108,8 %) tashkil etdi.

**Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
faoliyatining ulushi, %da**

(2023- yil yanvar-sentabr oylarida)



2023- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmiga nisbatan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ulushi 69,2 %ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ulushi tahlil qilinganda, eng yuqori ulush Bo'ka (83,4 %), Parkent (80,7 %) tumanlariga hamda Yangiyo'l shahriga (90,1 %) to'g'ri keldi.

Aksincha, eng past ulush Chinoz (57,2 %), Quyi Chirchiq (55,1 %) tumanlarida hamda Nurafshon shahrida (46,2 %) kuzatildi.